



TALABALARNI INNOVATSION TA'LIM MUHITIGA TAYYORLASH

Kadirova Nilufar Mirzaakbarovna

Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedراسi mudiri,
p.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10148492>

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirish, ularni innovatsion ta'lim muhitiga tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimiga innovatsion yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy-metodik ahamiyati va tashkiliy-pedagogik asoslari haqida ilmiy farazlar bayon qilingan. Bundan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llashdagi muammolar, bu muammolarni yechimini topishga qaratilgan amaliy-metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar va tushunchalar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion ta'lim, interfaol metod, muammoli ta'lim, modulli ta'lim.

Аннотация: В данной статье излагаются научные гипотезы о практическо-методической значимости и организационно-педагогических основах формирования профессиональных навыков студентов, их подготовки к инновационной образовательной среде, развития навыков инновационного подхода к образовательной системе. Кроме того, были даны проблемы использования инновационных образовательных технологий в образовательном процессе, практические и методические рекомендации, направленные на поиск решения этих проблем.

Ключевые слова: инновации, инновационная деятельность, инновационное образование, интерактивный метод, проблемное обучение, модульное обучение.

Abstract: This article describes scientific hypotheses about the practical-methodical significance and organizational-pedagogical foundations of the formation of professional skills of students, their preparation for an innovative educational environment, the development of the skills of an innovative approach to the educational system. In addition, problems in the application of innovative educational technologies in the educational process, practical-methodical recommendations aimed at finding solutions to these problems were given.

Keywords: innovation, innovative activity, innovative education, interactive method, problem-based education, modular education.





Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sifatini yangi bosqichga ko'tarish jarayonida o'qituvchilarni yangicha ishlashga, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ta'limning yangi mazmunini o'zlashtirishga psixologik va pedagogik, ijtimoiy jihatdan tayyorlash, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirib olishlariga yordam berish uchun ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning innovatsion texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojlari yuzaga keldi.

Ta'limga ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalar shiddat bilan kirib kelmoqda. Ammo bu innovatsiyalarni talabalarni kasbga tayyorlashda qo'llanilmayapti, aksariyat hollarda pedagoglar innovatsion jarayonga tayyor emas. Shu sababli talabalarda kasbiy mahoratni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ularga o'tilayotgan metodik darslarni yangicha tashkil etish, ta'lim tizimining amaliy ehtiyojini ta'minlovchi asosiy vositaga aylanib bormoqda.

Talabalar o'quv jarayonini yangilash, innovatsion faoliyatga yo'naltirish, "innovatsiya", "innovatsion ta'lim", "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayonlar" muammosi AQSH, Angliya, Germaniya, Chexiya, Fransiya kabi davlatlarda keng ko'lamda o'rganilgan, MDX davlatlar orasida bu muammo ustida tadqiqot olib borgan pedagog olimlar jumlasiga K.Angelovskiy, L.M.Fridman, A.Verbitskiy, V.V.Guzeev, M.V.Klarin, V.R.D'yachenko, V.A.Slasyonin, G.K.Selevko, A.G.Karmayev, N.R.Yusupova, V.I.Slabodchinovlarning ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rish mumkin.

O'zbekistonlik olimlardan N.Azizxo'jayeva, B.Ziyomuxammedov, J.G.Yo'ldoshev, U.Nishonaliyev, N.Sayidaxmedov, B.A.Ferbermanlar ta'lim tizimidagi innovatsiyalarning mohiyati va ularni o'quv jarayoniga kiritish masalalari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Talabalarni kasbiy yo'naltirilganligini shakllantirish muammosi K.S.Shodiyeva tomonidan tadqiq etilgan.

Oliy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsini shakllantirish, o'z-o'zini boshqaruvi asosida talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish va kasbiy shakllanganlik tashxisi masalalari M.A.Abdullajonov, O.A.Abdulina, A.A.Akbarov, M.M.Axmadjonov, A.P.Regushlarning tadqiqotlarida yechimini topgan.

Mavjud manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyatida oliy o'quv yurtlarida bo'lajak pedagoglarning tayyorlash muammolari xususida so'z yuritilgan bo'lib, talabalarni kasbiy mahoratini shakllantirishda innovatsion texnologiyalar muammosi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat o'z-o'zidan talabalarni kasbiy mahoratini shakllantirishda u yoki bu jihatlari bilan





bog'liq bo'lgan muammolarni ilmiy pedagogik yechimlarini topishga oid masalalarga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunga kelib interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim tarbiya jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Demak, buning asosiy sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar esa, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyalarini bajaradi.

Bunda ta'lim-tarbiya jarayonining hozirgi bosqichida barcha hamkasblarimizning diqqat-e'tiborlarini o'ziga jalb qilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, ta'limning optimal metodlari kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati va ularni qo'llash mexanizmlarini mukammal egallashga zarurat tug'ildi. Darhaqiqat, bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, ya'ni "sub'yekt-ob'yekt" tizimi "sub'yekt-sub'yekt"ga aylanmoqda. Endi o'quvchiga ob'yekt sifatida emas, balki ko'p narsalarni bilishga qodir – shaxs sifatida qarashimiz kerak. Ta'limda ko'zlangan ijobiy natijalarga erishish uchun o'rgatuvchi va o'rganuvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yuqori saviyaga olib chiqish talab etiladi, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning interfaol va innovatsion metodlariga mumkin qadar ko'proq e'tibor berish kerak. Bizningcha, bunday uslublar qatoriga ko'pchilik ilmiy-pedagogik adabiyotlarda tan olingan quyidagi metodlarni kiritish mumkin.

1. Muammoli ta'lim;
2. Mujassamlashgan ta'lim;
3. Modulli ta'lim;
4. Rivojlantiruvchi ta'lim;
5. Tabaqalashtirilgan ta'lim;
6. Faol(majmuaviy) ta'lim;
7. Ishchanlik o'yinlari.

Sanab o'tilgan ta'lim metodlarining har birining aniq maqsadlari birbirlaridan farq qiladi, ya'ni:

- 1) o'rganuvchilarning mustaqil, ijodiy bilish faolliklarini oshirish;





2) shaxsning his qilish xususiyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan ta'lim jarayoni tuzilmasini yaratish;

3) ta'lim mazmunini shaxs individuall ehtiyojlari va uning bazaviy tayyorgarligi darajasiga moslashtirish;

4) shaxsning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish;

5) o'rganuvchilarning moyillik, qiziqish va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoitlar yaratish;

6) o'rganuvchilar faolligini tashkillashtirish;

7) bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo'lishini ta'minlash.

Eng muhimi, sanab o'tilgan zamonaviy ta'lim metodlarining mazmun-mohiyatlari turlicha, ya'ni:

- o'rganuvchilarga navbat bilan aniq maqsad sari yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish borasidagi faoliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiluvchi topshiriqlarni berib borish;

- mashg'ulotlarni alohida-alohida bloklarga biriktirish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirishga erishish;

- o'rganuvchilarning individual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlashini ta'minlash;

- ta'lim-tarbiya jarayonini shaxs potentsial imkoniyatlari va ularni amalga oshirishga yo'naltirish;

- turli o'zlashtirish darajalari (reproduktiv, algoritmik, evristik, ijodiy) bo'yicha majburiy me'yor(standart)dan kam bo'lmagan hajmdagi o'quv dasturi materialini o'zlashtirish;

- bo'lajak faoliyatning predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirish;

- o'rganuvchilarning o'quv axborotlarni qayta ishlash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilish faoliyatlarini rivojlantirish.

Albatta, mazmun-mohiyatni amalga oshirish mexanizmi ham har xil, bir-birlaridan farqli bo'lishi ayon, ya'ni:

1) tadqiqotchilik metodi, bilish faoliyatiga yo'naltirilgan topshiriqlar bajarish;

2) o'rganuvchilar ish qobiliyatining dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari;

3) muammoli yondashuvni amalga oshirishning individual maromi;

4) o'rganuvchilar faoliyatini turli sohalarga yo'naltirish;

5) individual ta'lim metodlari;

6) o'rganuvchilarni ijodiy faoliyatga jalb etuvchi ishchanlik o'yinlari.





Bundan xulosa qilish mumkinki, oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonining pedagogik texnologiyasi o'rgatuvchi va o'rganuvchilarning hamkorlikda faoliyat ko'rsatib, ko'zda tutilgan ijobiy natijaga erishishni taqozo etadi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – B. 486.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. - T.: TDPU, 2003. – B. 194.
3. Ishmatov Q. - Pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari. T. Ta'lim muammolari. 1999 yil.
4. Ishmuhammedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod", 2008. – B. 180.
5. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X.- O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – T.: TDPU, 2006. – B. 159.
6. Karimov I. O'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning uyg'unlashgan texnologiyalari: Monografiya. T.: "Adabiyot uchqunlari", 2020. – 194 b.
7. Sayidaxmedov. N. - "Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash". Toshkent. 2000 yil.
8. www.tdpu.uz
9. www.wikipedia.org
10. www.osinka.ru
11. <http://gerbertechnology.com.ua/siluet.php>

